



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 25-iyul

VII-12-87-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining 2025-yil 22-maydagi VII-10-69-7-96-K/25-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i M.Obbozovning 2025-yil 19-iyundagi xalq deputatlari tuman Kengashining VII-10-69-7-96-K/25-son (keyingi o'rinlarda – **"VII-10-69-7-96-K/25-sonli qarori"**) qaroriga o'zgartirish kiritishni so'rab qilgan 02/02-38-428-sonli bildirgisi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. VII-10-69-7-96-K/25-sonli qarorining 2-bandini ko'rsatib o'tilgan so'zlari o'rniga quyidagicha "Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'lari hisobidan 896,3 mln.so'm, 2025 yil 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan 93,327 mln.so'm **jami 989,627 mln.** (To'qqiz yuz sakson to'qqiz mln.olti yuz yigirma yetti ming) so'm mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin" deb bayon etilsin.

3. VII-10-69-7-96-K/25-sonli qarorning 1-ilovasi 9-bandini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qarorning qolgan bandlari o'z kuchida va o'zgarishsiz qoldirilsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)ga xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH